



ODIL SUDLOV TUSHUNCHASI VA VA TAMOYILLARI

Baltabaeva Ulbiyke Ilich qızı

Berdoq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Yurisprudenciya yo'nalishi 1-kurs studenti

ulbiykeilichovna@gmail.com

Aytimova Barshinay Mubarek qızı

Berdoq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Yurisprudenciya yo'nalishi 3-kurs studenti

barshinay16a@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20343652>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 11-may 2026 yil

Ma'qullandi: 15-may 2026 yil

Nashr qilindi: 22-may 2026 yil

KEY WORDS

Odil sudlov, huquqiy prinsiplar, qonuniylik, sudyalar mustaqilligi, sud hujjatlarining majburiyligi, qonun oldida tenglik, sud hokimiyati.

ABSTRACT

Ushbu maqola odil sudlovning huquqiy tabiati, uning mazmun-mohiyati va ushbu faoliyatning asosini tashkil etuvchi fundamental prinsiplarni o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada "prinsip" tushunchasining falsafiy va huquqiy ta'riflari, shuningdek, odil sudlovni amalga oshirishda qonuniylik, sudyalarning mustaqilligi, sud hujjatlarining majburiyligi va fuqarolarning qonun va sud oldidagi tengligi kabi prinsiplarning ahamiyati tahlil etilgan. Muallif tomonidan sudyalar mustaqilligining xalqaro standartlari va sud hujjatlarining ijrosiga oid ijro hujjatlarining turlari keng yoritib berilgan. Maqolada sud hokimiyatining adolatli va xolisligini ta'minlashdagi huquqiy kafolatlar O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi va qonunchiligi asosida dalillangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstituciyasida belgilanganidek, O'zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatdan, siyosiy partiyalardan, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan mustaqil holda ish yuritadi. O'zbekiston Respublikasida sud tizimi va sudlar faoliyatining tartibi qonun bilan belgilanadi. Favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi. Shuningdek, davlatimizda, sudyalar mustaqildirlar, faqat Konstitutsiya va qonunga bo'ysunadilar. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirishga doir faoliyatiga har qanday tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Sudyalar muayyan ishlar bo'yicha hisobdor bo'lmaydi. Sudyalar daxlsizdir. Davlat sudyaning va uning oila a'zolarining xavfsizligini ta'minlaydi. Sudyani muayyan ishning muhokamasidan chetlashtirishga, uning vakolatlarini bekor qilishga yoki to'xtatib turishga, boshqa lavozimga o'tkazishga faqat qonunda belgilangan tartibda va asoslarga ko'ra yo'l qo'yiladi. Sudning qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi sudyani lavozimidan ozod etish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin emas. Sudyalar senator,

davlat hokimiyati vakillik organlarining deputati bo'lishi mumkin emas. Sudyalar siyosiy partiyalarning a'zosi bo'lishi, siyosiy harakatlarda ishtirok etishi, shuningdek ilmiy, ijodiy va pedagogik faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanishi mumkin emas. Shu bilan birga, hamma sudlarda ishlar ochiq ko'riladi. Ishlarni yopiq majlisda tinglashga qonunda belgilangan hollardagina yo'l qo'yiladi va sud hokimiyatining hujjatlari barcha davlat organlari va boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar hamda fuqarolar uchun majburiydir [1].

Shu qatorda, O'zbekistonda odil sudlovni amalga oshirishda birqancha prinsiplarga ham e'tibor beriladi. Dastlab, tamoyillar tushunchasi va ularning ahamiyatini ko'rib chiqadigan bo'lsak, tamoyillar har qanday hodisa va inson faoliyatining asosi hisoblanadi. Tamoyillar mazmun jihatidan obyektiv hisoblanadi, chunki ular ijtimoiy munosabatlar rivojini tartibga soluvchi obyektiv qonuniyatlarni aks ettiradi. Har qanday huquq sohasidagi faoliyat muayyan prinsiplarga tayangan va ularga amal qilgan holda amalga oshiriladi. Odil sudlovni amalga oshirish prinsiplari - sudyalar korpusini shakllantirish, odil sudlov faoliyatini yuritish jarayonida amal qilinishi lozim bo'lgan asosiy qoidalar, prinsiplardir.

Prinsiplar fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga, qonuniy, asosli va odil sudlov faoliyatini amalga oshirishga xizmat qiladigan muhim, fundamental qoidalaridir. O'zbek tilining izohli lug'atida prinsip (lotincha principium) - asos, negiz, boshlanma degan ma'nolarni anglatib, biror nazariya, ta'limot, dunyoqarash va shu kabilarning dastlabki, asosiy qonun-qoidasi, faoliyat uchun asos qilib olinadigan bosh g'oya, qonun-qoida sifatida ta'riflangan. Tamoyillar ko'p qirrali xususiyatga ega bo'lgan jamoaviy kategoriyadir. Tamoyillar soha mazmunini baholash omili nuqtai nazaridan o'ziga xos xususiyatga ega. Jinoyat protsessi prinsiplari, uning mazmun-mohiyati bo'yicha tahlil qilish hamma vaqt ham eng dolzarb bo'lib kelgan. Falsafiy lug'atlarda tamoyil deganda birlamchi, isbot talab qiluvchi ishlaydigan nazariy qoidalar, ichki ishonch, o'zgaras qoidalar yoki xulq-atvor qoidalari tushunilishi ta'kidlangan.

Odil sudlovni amalga oshirishdagi asosiy tamoyillarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, sud hokimiyatining odil, qonuniy va xolis faoliyat yuritishini ta'minlaydigan asosiy qoidalar majmui odil sudlovning asosiy prinsiplari deb ataladi. Ularga quyidagi tamoyillar misol bo'la oladi:

Qonuniylik - bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va normativ-huquqiy hujjatlarda normativ jihatdan aks ettirilgan universal umumiy huquqiy prinsipdir. O'zbekiston Respublikasida odil sudlov qonunga qat'iy muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Qonunlarni aniq bajarishdan va ularga rioya etishdan har qanday chekinish, qanday sabablarga ko'ra yuz berganligidan qat'i nazar, odil sudlovni amalga oshirishda qonuniylikni buzish hisoblanadi. Qonuniylik konstitutsiyaviy tamoyil sifatida odil sudlovni amalga oshirishda o'zining mustaqil huquqiy kafolatlariga ega. Qonuniylik deganda davlat tomonidan o'rnatilgan qonunchilik va qonunosti hujjatlarida belgilangan talablar va tartiblarga rioya qilish, ishlash, unga rioya qilish tushuniladi. Qonuniylik prinsipi odil sudlovni amalga oshirishda qonunchilik talablariga so'zsiz rioya etishga da'vat etadigan huquqni qo'llashning muhim elementidir. Qonuniylik o'z navbatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligini, inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini davlat tomonidan himoya qilish kafolatlarini, fuqarolarning davlat organlarining g'ayriqonuniy harakatlaridan himoya qilishga qaratilgan konstitutsiyaviy huquqlari mavjudligini anglatadi.

Keyingi principini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bu, sudyalarning erkinligi. Sudyalar mustaqil bo'lib, faqat qonunga bo'ysunadi. Sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi. Sudyalarga odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan har qanday vazifalar yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi. Sudyalarning mustaqilligi barcha demokratik davlatlarda odil sudlovni amalga oshirishning umume'tirof etilgan prinsipi bo'lib, xalqaro sud institutlari faoliyatiga rahbarlik qiladi. Bu tamoyil ko'plab xalqaro-huquqiy

hujjatlarda (Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining, Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiyaning 6-moddasi) o'z ifodasini topgan.

Keyingi principi, sud hujjatlarining majburiyligi. Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolar uchun majburiy va O'zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi shart. Sud hujjatini ijro etmaslik qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi. Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini majburiy ijro etish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi organlarining davlat ijrochilari zimmasiga yuklatilgan. Pul mablag'larini undirish to'g'risidagi sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarining talablarini bajarish qonunda nazarda tutilgan hollarda soliq organlari, banklar va boshqa kredit tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarining talablari qonunda nazarda tutilgan hollarda boshqa jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan ham bajarilishi mumkin.

Yanada, sud hujjati ustidan shikoyat qilish huquqi. Taraflar qonunda nazarda tutilgan asosli hollarda esa boshqa shaxslar ham sud hujjati ustidan qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Shuningdek, Konstitutsiyamizning 55-moddasida inson va fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlari bo'yicha quyidagilar mustahkamlangan. Har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli. Har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari va boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning faoliyati qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqi kafolatlanadi. Har kim O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga tegishli barcha ichki vositalaridan foydalanib bo'lingan bo'lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat qilishga haqli. Har kim davlat organlarining yoki ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararining o'zni davlat tomonidan qoplanishiga haqli [2].

Davlatimiz so'nggi yillarda amalga oshirilgan sud-huquq islohotlari sud hokimiyati mustaqilligini hamda sudlar faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash bilan bir qatorda fuqaro va tadbirkorlarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish imkonini berdi.

Shu bilan birga "Yangi O'zbekiston — yangi sud" tamoyili doirasida aholining odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish sud-huquq tizimini isloh qilishni jadallashtirishni, sohaga ilg'or xalqaro standartlarni joriy etishni talab etmoqda.

2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq, shuningdek, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudlar faoliyati samaradorligi va odil sudlov sifatini oshirish maqsadida:

2023 — 2026-yillarga mo'ljallangan sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasi (keyingi o'rinlarda — Strategiya) tasdiqlansin.

Strategiya doirasida quyidagilar odil sudlovni ta'minlashning ustuvor vazifalari etib belgilansin:

"Inson qadri uchun" g'oyasi asosida chinakam adolatli sud tizimini shakllantirish hamda uning faoliyatini xalq manfaati va inson qadr-qimmatini samarali himoya qilishga yo'naltirish; adolatli sud qarorlari qabul qilinishiga erishish orqali xalqning, shu jumladan, tadbirkorlarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, har bir shaxs sud va sudyalari siymosida o'zining ishonchli himoyachisini ko'rishiga erishish;

fuqarolar hamda tadbirkorlarga o'z huquq va qonuniy manfaatlarini sudlarda himoya qila olishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sud ishlarini yuritishda tortishuv va taraflarning tengligi tamoyillarini to'laqonli ro'yobga chiqarish, sudlarning xolisligini amalda ta'minlashga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish;

sudlar faoliyatini to'liq raqamlashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, idoralararo elektron ma'lumot almashinuvini yaxshilash, sud majlislarida masofadan turib ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish;

sudyalarning mustaqilligi va daxlsizligi kafolatlarini kuchaytirish, sudga hurmatsizlik qilish va sud ishiga aralashish holatlarining oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlarni ishlab chiqish; sud qarorlarining qat'iy ijrosini ta'minlash, bu borada davlat organlari va mahalliy hokimliklarning mas'uliyatini oshirish;

sudyalar va sud xodimlarida yuksak muomala madaniyatini shakllantirish orqali sudga murojaat qilgan har bir fuqaro va tadbirkorda suddan, pirovardida esa davlatdan rozilik hissini uyg'otish kabi vaziyfalar belgilab qo'yilgan [3].

Shuningdek, davlatimizda sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, fuqarolar va tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish choralarini kuchaytirish, odil sudlovni samarali ta'minlash va sudlar rolini oshirish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida sud-huquq sohasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish, fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasini yuksaltirish, ishlarni sudda ko'rish sifatini oshirish, adolatli va qonuniy sud qarorlarini qabul qilish uchun taraflar tengligi va tortishuvchanligini amalda ta'minlash mexanizmlarini kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 24-iyulda "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6034-sonli Farmon qabul qildi. Bu farmonning qabul etilishi ham davlatimizda sud sohasining rivojlanishiga, uning odil tarzida amalga oshirilishida katta hissa qoshdi [4].

Xulosa qilib aytganda, davlatimizda odil sudlov mukammal darajada rivojlangan deb hisoblasak ham mubolag'a bo'lmaydilar. Mamlakatimizda harbir sud odil, ochiq va shaffof o'tkaziladi. Sud hujjatlari majburiy hisoblanib unga amal qilish harbir fuqoraning vazifasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstituciyasi.2023
2. Sud hám huqıqtı qorǵaw uyımları: Sabaqlıq / Avtorlar toparı –2026. 423 bet
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-11-son farmoni. 2023.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 19-sonli qarori. 2020.